Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Elishay-
Mo'jizalar
qiluvchi
odam

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Lazarus; Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Ruth Klassen

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2021 Bible for Children, Inc.
Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.

Yer haydash uchun buqalar etishmasdi. Yana bitta buqa kerak edi. Ammo bu Elishayni to'htatmadi. U buqani o'rniga o'zi turib, yerni haydadi. Elishay kuchli va aqlli odam edi.

Elishay yer haydayotganda, Ilyos payg'ambar kelib, uni chaqirdi. Elishay xizmatchisi bo'lish uchun daladan ketdi. Bir kuni Xudovand olovli ot arava yuborib, Ilyosni osmonga olib ketdi.
Shundan keyin Elishay Isroil xalqiga payg'ambar bo'ldi.

Ilyos payg'ambar yo'qligidan Elishay juda xafa edi. U Xudodan xuddi Ilyosdagidek kuch so'rardi. U Ilyosni chakmonini olib, daryoga urdi.
Daryodagi suv ikkiga bo'lindi. Shunda Elishay Xudovand u bilan birga ekanini bildi.

Elishay Baytil degan joyga yo'l oldi. Yo'lda yosh bolalar chiqib, uni: "Yo'qol bu yerdan kal!"- deb masxara qilishdi. Ular Elishay Xudoning xizmatchi ekaniga parvo qilmasdi. Shunda ular bilan dahshatli narsa sodir bo'ldi. O'rmondan ikkita ayiq chiqib, ularni burda-burda qilib tashladi.

Bir kuni Elishayni oldiga bo'ynida qarzi bor, ammo uni qaytarib berolmayotgan beva ayol keldi.



Qarz bergan odam buni o'rniga uning ikki o'g'lini olib ketmoqchi bo'lardi. Elishay u ayolga: "Bor, qo'shnilaringdan ko'proq bo'sh idish yig'ib ol", - dedi. Xudo bu ayolga ajoyib marhamat ko'rsatmoqchi edi.

Beva ayolni uyida faqatgina bir ko'za zaytun yog'i qolgan edi. Lekin bitta ko'zadan barcha ko'zlar to'lguncha yog'quyildi! Beva ayol o'sha yog'larni sotib, o'g'illarini qullikdan olib qoldi.

Yana boshqa ayol va uning turmush o'rtog'i Elishay uchun alohida xona tayyorlab qo'yishdi. Toki u har safar ularning shaharidan o'tsa, o'sha yerda to'xtashi mumkin edi. Ular Elishayning xonasiga ko'rpa-to'shak, xontaxta, kursi va moychiroq qo'yishdi. Xona har doim Elishay uchun tayyor turardi.

Elishay bu oilaning qilgan yaxshiligi evaziga minnatdorchilik bildirishni hoxladi. Bu oilani farzandi yo'qligini bilgach, uy bekasiga shunday dedi: "Kelgusi yil shu vaqtga qo'lingda o'gling bilan bo'lasan!" Albatta shunday ham bo'ldi.

Yillar o'tib, o'sha bolacha otasi bilan dalada yurgan edi. Bola: "Boshim og'riyapti", -deb shikoyat qildi. Otasi uni uyiga olib bordi. Bola onasini qo'ynida bir oz yotgach, vafot etdi. Onasi uni Elishay uchun tayyorlab qo'ygan xonaga qo'ydi.



So’ng Elishayni izlashga ketdi. Elishay uning uyiga kelib, xonaga chiqdi va Xudoga ibodat qildi. Xudo bolaga hayotni qaytarib berdi. Elishay ayolni chaqirib: “O’g’lingni olib ket”, - dedi. Ayol juda ham xursand bo’ldi.



O'sha yerda No'mon ismli lashkarboshi bor edi. U juda ham kuchli va jasur edi. Ammo No'mon juda ham yomon teri kasalligiga chalingandi.

No'monning uyida Isroillik bir xizmatkor qiz ishlardi. U qiz No'monga Isroilda unga shifo bera oladigan payg'ambar borligini aytdi.

No’mon payg’ambar huzuriga borishga otlandi. Sovg’a tariqasida o’zi bilan oltin, kumush va chiroyli kiyim-kechak oldi.



Elishayni xizmatkori
No'monga shunday
dedi: "Bor va
Iordaniya daryosida
etti marta yuvingin.
Shundan so'ng shifo
topasan". No'mon
juda g'azablandi.
Axir u o'z yurtida
ham daryoda
yuvinishi mumkin
edi-ku! No'mon
qaytib uyiga
yo'l oldi.

Lekin No'monning xizmatkori u Elishayga quloq solishi kerakligiga undadi. No'mon rozi bo'lib, Iordaniya daryosida yetti marta yuvindi. Yuvinib bo'lgach, tyerisi shifo topdi! No'mon Elishayni haqiqiy Xudosiga hamdu sanolar aytdi.



Elishayning vafotidan so'ng ham Xudo uni ishlatdi. Bir kuni Elishay ko'milgan joyga boshqa vafot etgan odamni ko'mishdi. Uning tanasi Elishayni suyaklariga tekkanda, u tirilib, oyoqqa turdi. Haqiqatdan ham xizmatchisi Elishay orqali Xudovand O'z Qudratini ko'rsatdi.

Elishay- Mo'jizalar qiluvchi odam

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

2 Shohliklar 2-13

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130

Hikoya tugadi

Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16